

**O'SIMLIK DUNYOSINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH
BORASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN MELIORATIV
TADBIRLAR**

*Toshpo'latov Jahongir Samar o'g'li
Qarshi davlat texnika universiteti magistranti*

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini barqaror rivojlanirish eng avvalo yerga bo'lgan munosabatning to'g'ri hal etilishi hamda sug'orma dehqonchilikda suv resurslarining o'rniga bog'liqligi bois, aksariyat olimlar tomonidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida iqtisodiy samaradorlikni aniqlashda yer-suv resurslaridan foydalanish masalasini asosiy mezon sifatida e'tiborga olish lozimligini e'tirof etadilar. Bunday qarash qishloq xo'jaligida hal qiluvchi va almashtirib bo'lmaydigan asosiy ishlab chiqarish vositasi va mehnat predmeti hisoblangan qishloq xo'jaligiga yaroqli bo'lgan yerlar va suv resurslarining makonda keskin cheklanganligini asoslagan holda qishloq xo'jaligi samaradorligi tushun-chasini aniqlash imkonini beradi. Shu sababdan ham barcha yerdan foydalanuvchilarga minimum xarajat evaziga har gektardan maksimal mahsulot yetishtirish vazifasi qo'yiladi.

Ilmiy va maxsus adabiyotlarda yer-suv resurslaridan foydalanish, shuningdek, tuproq unumdarligini oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan meliorativ tadbirlardan foydalanish iqtisodiy samaradorligini aniqlash mezon va ko'rsatkichlarlari xususida turli fikr, taklif va tavsiyalar bildirilmoqda. Masalan, bir guruh olimlar yerdan foydalanish samaradorligini aniqlashda muayyan yer maydonlarining ishlab chiqarish va iqtisodiy ko'rsatkichlarining o'zaro taqqoslanishi yoki yer maydoniga mutloq baho berilishi mumkinligi, samaradorlik ko'rsatkichlari taqqoslanadigan sharoitda eng avvalo yer maydonining taqqoslanayotgan vaqtdagi unumdarligi darajasini hisobga olish muhim

ahamiyatga ega¹, deb hisoblaydilar, boshqa bir guruh olimlar esa yerdan foydalanish samadorligini aniqlashda majmuaviy yondashuv, ya'ni har xil sharoitlarga mos omillar asosida, tarkibiga ko'ra tuzilmaviy va ko'rsatkich va natijallariga ko'ra natijaviy ko'rsatkichlar² orqali aniqlash lozimligini qayd etadilar. Yana bir boshqa guruhdagi olimlar esa yerdan foydalanish iqtisodiy ko'rsatkichlarni natural, qiymat va nisbiy ko'rsatkichlariga bo'lish mumkin, deb hisoblaydilar va bunda ular natural ko'rsatkichlar sifatida hosildorlik, maydon birligidan olinadigan ozuqa birligi miqdorini, qiymat ko'rsatkichlari sifatida bir gektar yer maydoni va bir ball-bonitet hisobiga olinadigan yalpi mahsulot qiymati va sof foya miqdoridan kelib chiqishni, nisbiy ko'rsatkichlar sifatida esa ekin maydonlari tarkibi, yerdan foydalanish koeffitsienti va suv bilan ta'minlanganlik darajasini hisobga olishni taklif etganlar³.

Bizningcha, meliorativ tizim samaradorligini baholashda D.T.Zuzik⁴ tomonidan taklif qilingan meliorativ tizim samaradorligini baholash va ularni hisoblash uslubida keltirilgan quyidagi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish masalani kengroq yoritish imkoniyatini beradi. Mazkur tizim beshta guruhlardan iborat bo'lib, quyidagilardan tashkil topgan:

I guruh – meliorativ qurilishlardan oldingi mahsulot miqdori, uning qiymati va boshqa ko'rsatkichlar.

II guruh – meliorativ tizim yoki alohida inshootlarga, shuningdek melioratsiya qilinadigan yerlarni o'zlashtirish uchun asosiy va aylanma fondlarga kapital quylmalar.

III guruh – meliorativ tizim yoki alohida inshoot va qishloq xo'jalik mahsulotini ishlab chiqarish bo'yicha yillik xarajatlar.

IV guruh – tabiiy resurslar va ishlab chiqarish vositalaridan foya-lanish.

¹ Қурбонов Э. Кўп укладли иқтисодиёт шароитида сұғорилдиган ерлар самарадорлигини ошириш йўллари. И.ф.н. илмий дарражасини олиш учун диссертация. Т.: 2004. – 135 (12) б.

² Рахматуллаев А. Бозор иқтисодиёти шароитида қишлоқ хўжалигида ер муносабатларини такомиллаштириш. И.ф.н. илмий дарражасини олиш учун диссертация. Т.: 2002. – 149 (46) б.

³ Рахимов А. ва бошқалар. «Қишлоқ хўжалигида ерлардан фойдаланиш самарадорлиги ва мелиоратив ҳолатини яхшилашнинг ташкилий-иктисодий ва ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш йўналишлари». мавзусидаги амалий лойиҳа бўйича якуний ҳисобот. Т.: ҚҲИТИ. – 2014. – 130 (13) б.

⁴ Зузик Д.Т. Экономика водного хозяйства. – 4е изд., перераб. и доп. – М.: Колос, 1990, – 400 с.

Yerdan, tizim va alohida kanallar, suvdan foydalanish, inshootning o'tkazuvchanlik imkoniyatidan foydalanish koeffitsientlari, tuproq unumdarligi, fondning qoplanishi, fond sig'imi, material sig'imi, energiya sig'imi va b.

V guruh – mehnat xarajatlari va unumdarligi. Xodimlar soni, meliorativ va qishloq xo'jalik ishlariga qilingan mehnat sarfining umumiy qiymati.

VI guruh – kapital quyilmalar iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlari. Daromad, umumiy va qiyosiy iqtisodiy samaradorlik koeffitsientlari, kapital quyilmalarning qoplanish muddati, o'tkaziladigan chora-tadbirlar rentabelligi.

Bizningcha, zamonaviy melioratsiyaning oldiga qo'yilgan vazifalaridan kelib chiqib meliorativ tadbirlarning mavjud turlari bo'yicha mazkur ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish masalani kengroq yoritish imkonini beradi. Xususan, yuqorida qayd etilgan meliorativ tadbirlar turlaridan kelib chiqqan holda qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan agrotexnik melioratsiya samaradorligining asosiy mezoni bo'lib, o'simliklarning biologik omillariga ta'sir qilgan holda muayyan ekin maydonining mikroiqlimi, tuproq xossalari va sizot suv rejimini yaxshilash sanaladi. Ularni quyidagi samaradorlik ko'rsatkichlari asosida baholash maqsadga muvofiq:

– *yerni tekislashda*, ya'ni qishloq xo'jaligi ekinlari ekiladigan maydonlarning notekisligi, qiyaligi, nishabligi sababli ko'rildigan zarar hamda yerlarni tekislash natijasida erishiladigan ishlab chiqarish va iqtisodiy ko'rsatkichlar;

– *almashlab ekishni joriy etish* yerlarning meliorativ holatini yaxshilashdagi asosiy tadbirlardan bo'lib, ilmiy asoslangan sxemalar orqali amalga oshiriladi. Bunda erilishadigan asosiy samaradorlik ko'rsatkichlar sifatida tuproq tarkibining azot birikmalari bilan boyitilganligi va almashlab ekish natijasida erishilgan hosildorlik va foyda ko'rsatkich-larida o'z aksini topadi;

– *tuproqqa to'g'ri ishlov berish tadbirlari* bir qator ko'rsatkichlar va omillarga bog'liq bo'lib, birinchidan qishloq xo'jaligi ekinlariga ishlov berish jarayonlarida foydalaniladigan texnika turlari va ularning texnik ko'rsatkichlari, xususan tuproq zichlanishi va uning biologik strukturasiga ta'sirini belgilovchi koeffitsentlardan tarkib topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qurbonov E. Ko'p ukladli iqtisodiyot sharoitida sug'orildigan yerlar samaradorligini oshirish yo'llari. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. T.: 2004. – 135 (12) b
2. Raxmatullaev A. Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligida yer munosabatlarini takomil-lashtirish. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. T.: 2002. – 149 (46) b.
3. Raximov A. va boshqalar. «Qishloq xo'jaligida yerdan foydalanish samradorligi va meliorativ holatini yaxshilashning tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy asoslarini takomillashtirish yo'nalishlari». mavzusidagi amaliy loyiha bo'yicha yakuniy hisobot. T.: QXIIITI. – 2014. – 130 (13) б.
4. Зузик Д.Т. Экономика водного хозяйства. – 4е изд., перераб. и доп. – М.: Колос, 1990, – 400 с
5. uz# demografiya# o'zbekistonaholisi. 7.09.2021 yil
6. http://www.soil.uz@taiti_soil@tuproq_kinikasi
7. https://uza.uz/uz/posts/global-iqlim-ozgarishi-qurgoqchilik-chollanish-va-degradaciya-bugunning-dolzarb-muammosi_500755
8. <https://sendpulse.com/ru/support/glossary/gross-profit>
9. <https://daryo.uz/k/2022/05/11/ozbekistonda-sugorish-uchun-suvdan-foydalanish-limitlari-belgilandi>
10. <https://kyrator.com.ua/knigi/727-rekomendacii-po-nou-till>